

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17672127>

HUDUDIIY INVESTITSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK SANOAT ZONALARINING AHAMIYATI

Esanaliev Otabek Yusupjonovich

Assistent, «Menejment» kafedrasi

Namangan davlat texnika universiteti

esanalievotabek2508@gmail.com

+998934970711

Annotatsiya. Ushbu maqola hududiy investitsion faoliyatni rivojlantirishda kichik sanoat zonalarining rolini va ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Maqolada kichik sanoat zonalarining samaradorligini oshirish yo'nalishlari ham taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Kichik sanoat zonasi, hududiy rivojlanish, investitsiya, tadbirkorlik, iqtisodiy o'sish, investitsiya muhiti, investitsion faoliyati, innovatsiya, investitsion jozibadorlik.

KIRISH.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida kichik sanoat zonalarini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha qator huquqiy-hududiy va iqtisodiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017–2025-yillar davomida KSZlar soni va maydoni keskin oshgan, ularga turli soliq va bojxona imtiyozlari joriy etilgan. Shu bilan birga, hududiy investitsion faoliyatni rivojlantirishda kichik sanoat zonalarining ahamiyati har doim ham tizimli o'rganilmagan. Investitsion faoliyatning rivojlanishiga ko'plab iqtisodiy, huquqiy, institutsional va infratuzilmaviy omillar ta'sir qiladi. Uning rivojlanishi, o'z navbatida, kapital oqimini rag'batlantirishi, ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirishi va hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish kuzatiladi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, kam rivojlangan va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etmagan hududlarda industrial parklar, texnopolislar va sanoat zonalarini tashkil etish hududiy taraqqiyotni jadallashtirishning samarali vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Bunday hududlarda sanoat zonalarini barpo etish orqali mavjud iqtisodiy salohiyatdan to'liq foydalanish imkoniyati yaratiladi, mahalliy resurslardan samarali foydalanish orqali hududiy iqtisodiy samaradorlik sezilarli darajada oshadi. Shuningdek, industrial zonalarining rivojlanishi tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi kooperatsiya jarayonlarini chuqurlashtirishga xizmat qilib, ularning texnologik

hamkorligi va klasterlashuvini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, kichik sanoat zonalarini joylashgan hududlarning investitsion jozibadorligini oshiradi, mahalliy va xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Natijada, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortib, hududlarda aholi bandligi darajasi oshadi hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi. Shuning uchun ham, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda kichik sanoat zonalarining investitsiya muhiti va ishlab chiqarish kooperatsiyasiga qo'shadigan hissasi alohida tadqiqot ob'ekti sifatida ko'rib chiqilmoqda¹⁷.

O'zbekiston Respublikasida kichik sanoat zonalarini faoliyatini tashkil etish va ularda investitsion faollikni oshirish bo'yicha qator davlat dasturlari va normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 25 oktabrdagi «Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3356-son [1], 2019 yil 21 iyundagi «Kichik sanoat zonalarini faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4363 son [2], Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi «Kichik sanoat zonalarini to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 134-son qarori [3], shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur maqola tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. Shunga qaramay, ushbu zonalarda investitsiyalar oqimini barqaror ushlab turishi, investorlar uchun qulay infratuzilmaviy va huquqiy muhitni shakllantirishda ayrim tizimli muammolar mavjud. Dunyo iqtisodiyoti amaliyotining ko'rsatishicha, investitsiyalar xorijiy va raqamli iqtisodiyot iqtisodiy taraqqiyotining muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Chunonchi, “chet ellik investorlarning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan amalga oshiriluvchi investitsiyalari”¹⁸ to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini ifoda etib, ushbu investitsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, mamlakat va uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mahsulot sifatini oshirish va uning raqobatbardoshligini ta'minlash, jahon bozoriga chiqish, intensiv rivojlanishni yo'lga qo'yishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu borada kichik sanoat zonalarining tashkil etilishi va faoliyati taraqqiyotini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shuni hisobga olgan holda “Kelgusida erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini zarur infratuzilmalar bilan ta'minlash uchun 1,8 trillion so'm yo'naltiriladi”.¹⁹ Shu bois ushbu maqolada kichik sanoat zonalarida investitsion faoliyatni rivojlantirishning nazariy asoslari, amaldagi holati va takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hududlarni rivojlantirishda kichik sanoat zonalarini va industrial parklarning

¹⁷ Salimov B.T., Salimov B.B. “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish”. – T.: Iqtisodiyot, 2020. – 135 b

¹⁸ Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabr O'RQ-598-son Qonuni. 3-modda, 15- xatboshi. Lex.uz/docs/4664142

¹⁹ <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.

iqtisodiy ahamiyati yuzasidan bir qator xorijiy olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Xususan, V.Millberg va M.Amengual o'z izlanishlarida industrial parklar iqtisodiy jihatdan qoloq va rivojlanish sur'ati past hududlar uchun muayyan darajada “iqtisodiy motivatsiya” vazifasini bajara olishini ta'kidlaydi. Olimlarning fikricha, bunday kichik sanoat zonalar iqtisodiy rivojlanish uchun maxsus ajratilgan kichik ishlab chiqarish maydonlari hisoblanadi. Ularning asosiy ustunligi shundaki, ular katta sarmoya yoki yirik ishlab chiqarish infratuzilmasini talab etmaydi, balki nisbatan kam xarajatlar bilan tashkil etilishi mumkin. Bu jihatdan industrial parklar erkin iqtisodiy zonalar yoki maxsus iqtisodiy hududlarga nisbatan ko'proq qulaylikka ega bo'lib, mahalliy tadbirkorlik subyektlari va kichik korxonalar uchun investitsion muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi²⁰.

Tadqiqotchi olim A.Agarvalning 2007 yilda e'lon qilingan «Impact of SEZ on Employment, Poverty and Human Development» nomli tadqiqot natijalarida sanoat zonalarining, xususan kichik biznes vakillari uchun mo'ljallangan sanoat zonalarining hududiy bandlikni ta'minlashda va inson resurslarini rivojlantirishdagi o'rniga alohida e'tibor berilgan. Jumladan, mazkur tadqiqot ishida maxsus sanoat zonalarining «kichiklashtirilgan» variantlari nisbatan past rivojlangan yirik hududlarning aholi zich istiqomat qiladigan joylari uchun samarali bo'lib, yirik sanoat ishlab chiqarishdan holi bo'lgan hududlari hisoblanadi²¹

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli yondashuv, statistik tahlil, qiyosiy tahlil va sintez usullari qo'llanildi. Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistik qo'mitasining ma'lumotlari, moliya vazirligining hisobotlari va kichik sanoat zonalar faoliyati bo'yicha ma'lumotlar asos qilib olindi. Tadqiqot 2020-2025 yillardagi ma'lumotlarni qamrab oladi. Hududiy investitsion faoliyat ko'rsatkichlari va kichik sanoat zonalar faoliyati o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik aniqlandi. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekistondagi faoliyat yuritayotgan kichik sanoat zonalar tanlandi, ularning investitsion jozibadorligi va iqtisodiy samaradorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda kichik sanoat zonalarini tashkil etish va faoliyat samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan qator chora-tadbirlar ta'sirida, yurtimizda kichik sanoat zonalarining umumiy soni va ularda amalga oshirilayotgan loyihalar soni keskin ortgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kichik sanoat zonalar faol bo'lgan hududlarda investitsion faoliyat sezilarli darajada yuqori. Kichik sanoat zonalar nafaqat investitsiyalarni jalb qilish, balki ularning samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Infratuzilma resurslarini birlashtirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va soliq imtiyozlari investitsion loyihalarning rentabelligini oshiradi.

²⁰ W. Millberg, M. Amengual. Economic Development and Working Conditions in Export Processing Zones: A Survey of Trends. ILO Office, Geneva, 2008. 68 p.

²¹ Giyozovich K. I., Vokhidovich G. S. IMPROVING THE INTEGRATION OF INSURANCE COMPANIES AND COMMERCIAL BANKS //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – T. 22. – C. 7-13.

Kichik sanoat zonalarida investitsion jozibadorlikni oshirishning investitsion faollikka ta'siri ko'rsatish algoritmi shuni tasdiqlaydiki, kichik sanoat zonasining investitsion jozibadorligi shakllanib, rivojlanishi sababli moliyaviy resurslar kichik sanoat zonasiga kiritilishi jadallashadi. Buning oqibatida, kichik sanoat zonasining investitsion faolligi ham rivojlanib boradi. Bu borada, kichik sanoat zonasining investitsion jozibadorligini ta'minlashda ishlab chiqarish infratuzilmalari tarmoqlarini shakllantirish va rivojlantirib borish, tashkil etilgan sanoat zonasi va undagi qulay investitsiya muhiti haqida axborotlarni investorlarga yetkazib borish, kichik sanoat zonasi boshqaruviga yuqori malakali "menejerlar"ni jalb etish, ular orqali innovatsion boshqaruvni joriy etish hamda yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish va boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi²².

KSZlarda investitsiya loyihalari tanlov asosida amalga oshiriladi. Asosiy mezonlari yangi ish o'rinlari yaratish, eksportbop yoki import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, zamonaviy energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda hududiy resurslardan samarali foydalanish. Bu talablar tadbirkorlik subyektlarini investitsion faoliyatni rejalashtirishda innovatsion va ijtimoiy yo'naltirilgan yondashuvni qo'llashga majbur qiladi.

KSZ hududida faoliyat yurituvchi korxonalar nafaqat imkoniyatlardan foydalanibgina qolmay, balki muayyan majburiyatlardan ham bajaradilar. Jumladan, investitsiya loyihalarini belgilangan muddatlarda amalga oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va xodimlarni ijtimoiy sug'urta tizimiga jalb etish, ekologik talablar va hududiy rivojlanish strategiyasiga rioya qilish va shartnomalarda belgilangan ishlab chiqarish hajmini ta'minlash. Agar majburiyatlar bajarilmasa, Direksiya va Ma'muriy kengash KSZ lar bilan tuzilgan shartnomani bekor qilish vakolatiga ega. Bu esa korxonalarni o'z zimmasidagi vazifalarni mas'uliyat bilan bajarishga undaydi.

Kichik sanoat zonalar (KSZ) mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ular ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholi bandligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, KSZlar mahalliy hududlarni iqtisodiy jihatdan tiklash, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishning asosiy platformasi hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda KSZning o'ziga xos xususiyatlari tizimli ravishda ko'rsatilgan bo'lib, ularni tahlil qilish orqali quyidagi jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Kichik sanoat zonalarining o'ziga xos xususiyatlari²³

№	Yo'nalishlar	O'ziga xos xususiyatlari
1.	Huquqiy asoslar	KSZlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va Vazirlar Mahkamasi nizomlari asosida tashkil etiladi (masalan, PQ-4363, VMQ-134).

²² Sh.E.Mannapova KICHIK SANOAT ZONALARIDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNI INVESTITSION FAOLLIKKA TA'SIRI <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz> 2025-yil 5-son.

²³Muallif ishlanmasi.

2.	Joylashuv mezonlari	Faqat muhandislik-kommunikatsiyalari mavjud bo'lgan yoki tez o'tkazilishi mumkin bo'lgan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan bo'sh yer maydonlarida tashkil etiladi.
3.	Infratuzilma	Elektr, gaz, suv ta'minoti, yo'l-transport va logistika xizmatlari markazlashgan holda taqdim etiladi.
4.	Ijara shartlari	KSZdagi ishlab chiqarish binolari tadbirkorlik subyektlariga uzoq muddatli imtiyozli ijara asosida beriladi.
5.	Moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Investitsiya loyihalari davlat tomonidan kafolatlangan kreditlar, soliq imtiyozlari va bojxona yengilliklari bilan ta'minlanadi.
6.	Innovatsion yo'nalish	KSZlarda ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida yaratilgan innovatsion mahsulotlarni tijoratlashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi.
7.	Iqtisodiy samaradorlik	Kichik sanoat zonalarini orqali ishlab chiqarish quvvatlari samarali foydalaniladi, import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqariladi.
8.	Aglomeratsiya effekti	Bir hududda joylashgan korxonalar o'zaro kooperatsiya orqali xarajatlarni pasaytiradi, ixtisoslashgan mehnat bozori va ta'minot zanjiridan foydalanadi.
9.	Tadbirkorlik muhiti	Yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorligiga keng imkoniyat yaratiladi, startap va kichik korxonalar uchun resurslar konsentratsiyasi ta'minlanadi.
10.	Hududiy rivojlanish	KSZlar mahalliy hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishda muhim drayver vazifasini bajaradi.

Kichik sanoat zonalarini mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashda beqiyos ahamiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Ularning asosiy afzalliklari tayyor infratuzilma, imtiyozli ijara shartlari, moliyaviy va soliq yengilliklari, ishlab chiqarish xarajatlarning kamayishi va aglomeratsiya samarasini ta'minlashi bilan belgilanadi. Shuningdek, KSZlar innovatsiyalarni tijoratlashtirish va eksportbop mahsulot ishlab chiqarish uchun qulay muhit yaratadi.

Biroq ularning kamchiliklari ham yo'q emas. Jumladan, ayrim hududlarda infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, kadrlar malakasining pastligi, xalqaro standartlarni joriy etish muammolari hamda imtiyozlar muddatining chegaralanganligi KSZlar samaradorligini cheklab qo'yadi. Shu bois, ularning barqaror rivojlanishi uchun davlat qo'llab-quvvatlovi bilan birga, mahalliy resurslardan oqilona foydalanish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi.

Respublikamizda 2020-2025 yillar davomida kichik sanoat zonalarida amalga oshirilgan loyihalarning o'rtacha rentabellik darajasi 18-22% ni tashkil etdi, bu esa hududning boshqa qismlaridagi ko'rsatkichdan (12-15%) sezilarli darajada yuqori. Jumladan 2025 yil 1-yanvar holatiga ko'ra jami 2,8 ming gektar foydali yer maydonida 416 ta sanoat zonalarini tashkil etilgan. Ularning tarkibida 3331 ta korxonalar faoliyati ko'rsatmoqda. Ushbu sanoat zonalarida qiymati 14,9 trln so'mlik 2 921 ta loyihalar ishga tushirilib, 86 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilgan. 2025-yil 1-yanvar holatiga kichik sanoat zonalarini tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 15 294,3 mlrd so'mlik bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 160,8 foizni tashkil qildi.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

kichik sanoat zonalarida 9 505,6 mlrd so‘m bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 149,5 foizni tashkil qilib 49,5 foizga o‘shirishga erishilgan.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida MIZ, KSZ, texnopark va klasterlar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi jami – 62 716,8 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan: MIZda – 27 252,1 mlrd. so‘mni, KSZda – 6 358,3 mlrd. so‘mni, texnopark – 427,2 mlrd. so‘mni va klasterlarda – 28 679,2 mlrd. so‘mni tashkil qildi. [4]


Hududiy tafovutlar sezilarli darajada: ba’zi viloyatlarda zonalar 80% dan ortiq band bo‘lsa, ayrim joylarda bu ko‘rsatkich 30–40% atrofida. Xalqaro tajriba asosida tahlil qilinganda, sanoat zonolari faoliyatini yaxshilash uchun davlat tomonidan yer va infratuzilmaning tayyorlab berilishi, raqamli platformalarning joriy etilishi, biznesga xizmat ko‘rsatish markazlari va logistik infratuzilmalarning mavjudligi muhim omil hisoblanadi.

Investitsion faoliyatni rivojlantirishda kichik sanoat zonolari muhim rol o‘ynaydi. Ular nafaqat ishlab chiqarish kuchlarini mahalliyashtirish, balki bandlikni oshirish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport hajmini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar (Turkiya, Polsha, Janubiy Koreya) tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik sanoat zonolari muvaffaqiyatli ishlashi uchun quyidagi shartlar muhim:

- “Bir darcha” tamoyili asosida tezkor xizmatlar ko‘rsatuvchi ma’muriy boshqaruv;
- Soliq va bojxona imtiyozlari;
- Davlat-xususiy sheriklik asosidagi infratuzilmani rivojlantirish.

Kichik sanoat zonolari tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan moliyalastirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (2020-2025-yillar kesimida, mlrd so‘mda)



1-rasm. Muallif tomonidan O‘zbekiston respublikasi Milliy satatistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan

Yuqoridagi grafikli ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki O'zbekiston Respublikasida Kichik sanoat zonalari tarkibidagi korxonalar tomonidan moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 2020 yilda 304,6 mlrd. so'm, 2021 yilda 219,3 mlrd. so'm, 2022 yilda 1663,6 mlrd. so'm, 2023 yilda 1038,6 mlrd. so'm, 2024 yilda 2139,7 mlrd so'm 2025 yilning yanvar sentyabr oylarida 990,9 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2025 yil 3-choragida esa Kichik sanoat zonalari tarkibidagi korxonalar tomonidan moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 990,9 mlrd. so'mni tashkil etdi, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 77,4 foizni tashkil etgan. [4]

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz mintaqalarining iqtisodiy va investitsion, shu jumladan, ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan keng ko'lamda va unumli foydalanishni ta'minlash, transport, muhandislik kommunikatsiya infratuzilmani rivojlantirish, hamda ishlab ijtimoiy chiqarish jarayonlariga ilg'or texnologiyalarning tatbiq etilishini jadallashtirish, aholi bandligini ta'minlash, ularning daromadlarini oshirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, mineral-xom ashyo resurslarini qayta ishlash, yangi zamonaviy quvvatlarni barpo etishda kichik sanoat zonalarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik sanoat zonalari hududiy investitsion faoliyatni rivojlantirishning muhim omilidir. Ular nafaqat investitsiyalarni jalb qilish, balki ularning samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish orqali hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi.

- Kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Kichik sanoat zonalarini rivojlantirishning aniq strategiyasini ishlab chiqish
- Infratuzilmani takomillashtirishga investitsiyalarni kuchaytirish
- Kichik sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun soliq va bojxona imtiyozlarini kengaytirish
- Kichik sanoat zonalarini innovatsion klasterlar markaziga aylantirish
- Kichik sanoat zonalari faoliyatini monitoring qilish va baholash tizimini joriy etish

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish hududiy investitsion faoliyatni yanada rivojlantirishga va muvozanatli hududiy taraqqiyotni ta'minlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 25 oktabrdagi «Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini oshirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3356-son Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 iyundagi «Kichik sanoat zonalarini faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4363-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi «Kichik sanoat zonalarini to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 134-son Qarori.
4. <https://stat.uz/uz/default/press-revizlar/59341-2025-yil>
5. Salimov B.T., Salimov B.B. “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish”. – T.: Iqtisodiyot, 2020. – 135 b.
6. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 25 dekabr O'RQ-598-son Qonuni. 3-modda, 15- xatboshi. Lex.uz/docs/4664142.
7. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
8. W. Millberg, M. Amengual. Economic Development and Working Conditions in Export Processing Zones: A Survey of Trends. ILO Office, Geneva, 2008. 68 p
9. Giyozovich K. I., Vokhidovich G. S. IMPROVING THE INTEGRATION OF INSURANCE COMPANIES AND COMMERCIAL BANKS //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – T. 22. – C. 7-13.
10. Sh.E.Mannapova KICHIK SANOAT ZONALARIDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNI INVESTITSION FAOLLIKKA TA'SIRI <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz> 2025-yil 5-son.
11. Salimov B.B. O'zbekistonda kichik sanoat zonalarini barpo etishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. - 2018. - №1.
12. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.